

## GENDEROLINGVISTIKADA AYOL GENINING O‘ZIGA XOS BELGILARI

**B.M. Polvonova,**  
Farg‘ona, O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Quyidagi maqolada tilshunoslikdagi neyrolingvistikaning o‘rganilish sohalaridan biri bo‘lgan genderolingvistikada ayol tushunchasining o‘ziga xos pozitsiyasi va buning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** neyropsixologiya, psixolingvistika, afaziyalogiya, gender, genderolingvistika, jinsiy farqlar, amigdala, hipokampus, kallosum to‘qimasi, stereotip tahdid v.b.

Genderolingvistika atamasi gender va lingvistika so‘zlarining o‘zaro birikuvidan hosil bo‘lib, jinsiy xilma-xillikning til nuqtayi nazaridan ifodalanishini o‘rganadi. Bunda gender tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tish joizdir.

Gender – inglizcha “genus” – “jins” so‘zidan olingan bo‘lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo‘lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi. Tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig‘indisi hisoblanadi. Jinsning madaniy niqobi bizning o‘z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Jamiyatda qabul qilingan norma – bu kiyimdagi, tashqi ko‘rinishdagi, o‘zini tushunishdagi belgilar bilan hosil bo‘ladi.

Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar me‘yoriy tizimi vujudga kelgan. Bular natijasida jamiyatda “erkaklarga oid” va “ayollarga oid” bo‘lgan xususiyatlar borasida qat’iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo‘ladi. **Gender** – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig‘indisidir. **Gender** – jinsning madaniy niqobi, bizning o‘z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Genderolingvistika, asosan, sotsiologik tadqiqotlarning yangi yo‘nalishini aks ettiruvchi fan bo‘lib, gender omilining erkak va ayollarning tildan foydalanishiga qanday ta’sir qilishi, tilning jinsini aniqlash uchun til nimani anglatishini va xatti-harakatlarini bildiradi.

Ayollar lug‘atining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu jins vakillari muayyan matnda so‘zlarni kamaytiruvchi qo‘shimchalardan foydalanishni afzal ko‘radi. Amerikalik tadqiqotchilar D.Geyj va N.Benfordning so‘zlariga ko‘ra, ayollar o‘z hikoyalarini asosiy narsa bilan emas, balki ahamiyatsiz tafsilotlar bilan boshlaydilar. Bu, ko‘pincha, suhbatdoshni yoki o‘quvchini g‘azablantiradi.

Olimlar V.I.Zelvis va A.P.Martinyuk ayollarning nutqdagi fazilatlarini quyidagicha ta’kidlashadi: suhbatdoshga murojaat qilishda katta xushmuomalalik, so‘z birikmalaridan foydalanishda juda ehtiyotkorlik. Ayollarda tajovuzkorlik istalmagan holda paydo bo‘ladi, ayollar bu jarayonning boshlanish sababidan qochishga harakat qiladilar. Ayollar talaffuzi nutq harakatlariga ko‘proq xosdir; ular nutqiy vaziyatda osonroq almashadilar, aloqa aktidagi rollarini tez o‘zgartira oladilar.

Ayol nutqida murakkab sifatlar, atamalar va birikmalarning ustunligi mavjud. Ayollar o'z nutqlarida maxsus tarzda shakllangan otlarni ishlatadilar. Ayol nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu "obro'li" (ya'ni jamiyat tomonidan shakllantirilgan) til qoidalari va me'yorlaridan foydalanish istagidir. Ayol tabiatida mukammal va jozibali ko'rinish istagi kuchli bo'ladi, shuningdek, tinglovchisi yoki o'quvchisida yoqimli va kuchli taassurot qoldirishni xohlaydi, nutqida ham shu sifatlarga amal qiladi.

Ayollar nutqida ko'proq nolish, xasrat qilish uy-ro'zg'or, oila kabi mavzular uchraydi. Ayollar o'z xursandchiligini bazan yuqori darajadagi emotsiya va turli noverbal hodisalar (qichqirib yuborish, qarsak chalish kabi holatlar. Bunday holatlar asosan, qizlarda uchraydi) orqali namoyon etadi. Qarg'ishlar 40 yoshdan oshgan ayollar o'rtasida ko'proq uchraydi.

Ba'zi tadqiqotchilar, fazoviy idrok etish qobiliyatidagi gender farqlari mavjud bo'lgan hollarda, ular madaniy kontekst va gender rollaridagi farqlar bilan izohlaydi. Ushbu tushuntirish foydasiga, xususan, Hindiston shimoli-sharqidagi umumiy genetik kelib chiqishi va boshqa ijtimoiy tashkilotga ega bo'lgan ikki xalqning 1300 vakili bilan o'tkazilgan qiyosiy tadqiqot misol bo'la oladi. Ayollar bo'ysunuvchi mavqega ega bo'lgan xalq vakillari orasida fazoviy idrokdagi gender farqlari ayollar ko'proq mustaqil bo'lgan odamlar vakillariga qaraganda sezilarli darajada ko'p. Ushbu tadqiqot mualliflarining ta'kidlashicha, ayollarning past fazoviy qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi omillardan biri **stereotip** tahdidining ta'siri bo'lishi mumkin. Agar jamiyatda ayollar muayyan turdagi vazifani bajara olmaydi degan stereotip mavjud bo'lsa-yu, ayolga bunday turdagi vazifa taklif qilinsa, stress natijasida u, haqiqatan ham, vazifai yomon natija bilan bajaradi. Bu hatto erkaklarda ham uchrashi mumkin.

Umuman olganda, hozirgi gender tilshunoslik izlanishlarini ayollarning nutqidagi o'ziga xoslikni tahlil etishlarida bir qator sotsiologik tajribalar asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo ularni tahlil etishda soha oldida turgan qator vazifalar ham yo'q emas.

Umuman olganda, hozirgi gender tilshunoslik izlanishlarini ayollarning nutqidagi o'ziga xoslikni tahlil etishlarida bir qator sotsiologik tajribalar asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo ularni tahlil etishda soha oldida turgan qator vazifalar ham yo'q emas. Masalan, ba'zi tadqiqotlar ba'zi mualliflarning sub'yektiv qarashlaridan iborat badiiy asar parchasiga suyangan bo'lsa, ba'zilar ma'lum xudud yoki millat ustidan yuritilgan tadqiqotlarga asoslanadi. Ularda bir-birini rad etish o'rinlari ham mavjud. Shunday ekan, bu fanni va undagi ayol genderi lug'at boyligini o'rganishda hali oldimizga qo'yilgan juda ko'p vazifalar mavjud.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Geyj D., N.Benford. Ayol genida noo'rin ifodalar ishlatilishi. – T.: Ilm-fan, 1995. - 268, 1632-1634 b.
2. Zelvis V.I., Martinyuk A.P. Psixolingvistika: til, aql va dunyo. – Longman, 2002.

3. Egamberdiyeva H.S. Zamonaviy tilshunoslikda neyrolingvistika sohasining paydo bo'lishi va uning ahamiyati // Filologiya ufqlari. – T.: O'qituvchi, 2023. – 89 b.
4. Berkley D. The Neuroscientific Basis of Cognitive and Emotional Differences between Men and Women. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 29 p.
5. Ma'rufjonova H. ayol va erkaklarning miya yarim sharlari o'rtasidagi farqlar // Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi [www.tadqiqotlar](http://www.tadqiqotlar).
6. Neuro –Linguistic Programming: Volume I The Study of the Structure of Subjective Experience.